

BIR HIKOYA TAHLILI (ISAJON SULTONNING “YOG‘OCH KAVUSH” HIKOYASI)

Madaminova Dilnura Bahodir qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Yog‘och kavush” hikoyasi tahlil qilinadi, shuningdek, hikoyaning mohiyati, yozuvchi mahorati, obrazlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: hikoya, badiiy asar, o‘zbek hikoyachiligi, badiiy asar mazmuni va g‘oyasi, tahlil va talqin, ijtimoiy fojia, yozuvchi mahorati.

KIRISH

Istiqlol davri o‘zbek nasrida Isajon Sulton ijodi alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yozuvchining asarlari badiiy-g‘oyaviy, ifodaviy jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy o‘zbek nasri tobora globallashib, butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni badiiy talqin etib bormoqda. O‘zbek yozuvchisi olam va odamni anglashda, uning maqsad va vazifalarini belgilashda sharqona badiiy-falsafiy konsepsiyanı ilgari surmoqda.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi mavzu mohiyati ham qariyb yuz yildan ziyod umrini insonning o‘zini anglashini yoritishga bag‘ishlab yashamoqda. Albatta, bu janrning shakllanishi, taraqqiyotida ko‘plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to‘planib, bugungi qiyofasiga ega bo‘ldi. O‘zbek hikoyachilik mifikatini yaratgan namoyondalardan Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo‘tayev, Sobir O‘nar, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam kabi yozuvchilarining o‘ziga xos ijodiy tajribalari yosh qalamkashlarga ham mahorat darslari vazifasini o‘taydi. Hikoya prozaning eng kichik janri bo‘lsa-da uning bag‘rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi. Hikoyaga har xil ta’rifu tavsiflar berilgan. Biroq, har bir hikoyaning ta’rifi Erkin A’zam ta’biri bilan aytganda, o‘zi bilan birga tug‘iladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Quyida Isajon Sultonning “Yog‘och kavush” hikoyasi tahlili orqali ijodkorning hikoyaga yuklagan ma’no va mazmunni, g‘oya va maqsadini aniqlashga harakat qilamiz. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog‘liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega.

Yozuvchining “Yog‘och kavush” hikoyasi o‘zi e’tirof etganidek, hayotning beshafqatligi va mehribon ota haqidagi mahzun hikoya (I.Sulton, 2017, 220-bet) bo‘lib, unda umri mehnatda o‘tgan, qotma, ozg‘in, qashshoqlikda kun kechiradigan chorakorning jonidan ortiq suygan qizini qanday baxtli qilish haqidagi o‘ylari va bu yo‘ldagi harakati qalamga olingan. Hikoya “Bu voqeа uzoq yillar avval, Xitoy imperatorlarining Tan sulolasi zamonida, ya’ni bundan bir ming uch yuz yil oldin ro‘y bergen...” deya boshlanadi. O‘quvchi hikoya bilan tanishar ekan, kutilmagan voqealiklar, syujet ketma-ketligi kitobxonni, bevosita, endi nima bo‘ladi ekan deya hikoyani davom etishga undaydi. Hikoyadagi mehribon ota Xuan Shiga kun kelib katta bo‘lganida qizimni qanday baxtli qilsam ekan, degan o‘y sira tinchlik bermaydi. Yozuvchi Xuan Shini hikoya boshida shunday ta’riflaydi:

“Ronzyan deb atalmish qishloqda bir odam yashar edi. U qotma, ozg‘in kishi bo‘lib, juda qashshoq hayot kechirardi. Fan-Fyong degan boyning bepoyon dalalarida suv kechib sholi yetishtirar, kiygani etigi bo‘lmagani uchun doimo oyoqyalang yurar, qish oylarida esa bir bo‘lak terini oyog‘iga o‘rab, ustidan arqon boylab olardi.”

TADQIQOT NATIJALARI

Xuan Shi aslida mehribon ota, lekin hikoya davomida o‘quvchi uni yomon ko‘rishi mumkin. Xuan-Shi o‘zi esini tanibdiki, mehnatdan boshi chiqmaydi. Bir nima orttirish u yoqda tursin, topgani faqat kun kechirishga yetadi. Uni bu qora mehnatdan qutulib, zahmatsiz va farovon hayot kechirishining birdan bir yo‘li sholichi boyga xotinlikka berish degan qarorga kelgach, o‘sha yerdagi urfga ko‘ra, oyoqlari kichkina bo‘lsin deb, qizaloqqa kichkina yog‘och kavush yasab beradi. Kavush juda noqulay bo‘lib, qattiq og‘riq bersa ham, otaning qiziga qanchalik ichi achisa ham hozircha qiynalsa, kelajakda azob-uqubat ko‘rmaydi va bir kuni qashshoqlikdan qutqarganim uchun mendan minnatdor bo‘ladi, degan xayolda o‘ziga taskin beradi. Oradan yillar o‘tib kutilgan muddat yetganda, hammasi ota rejalahtirgandek bo‘lmaydi. Bundan qattiq iztirobga tushgan otasi taqdirga tan berib, qizining ko‘ziga qaysi yuz bilan qarashini bilmay qishloqdan bosh olib ketadi. Yozuvchi bu holatni shunday tasvirlaydi:

“...Xuan-Shining ruhi tushib ketdi.

Hayotida mazmun qolmaganday tuyuldi.

Endi nima qilsin?

Hozir kulbasiga borsa, kavushini taqillatib qizi chiqib keladi. Bechoraning shuncha chekkan azob-zahmatlari behuda ketdi. Endi qiziga qaysi yuz bilan “Ech shu yaramas matohni” deydi?

Bu yerlardan boshimni olib ketsammikin, deb o‘yladi u.

Shu fikri o‘ziga ma’qul keldi.

Uzoq-uzoqlarda Tiyonshon boshidagi ko‘k muzlariyu oq qorlari bilan savlat to‘kib yarqirab turardi. Umr bo‘yi yetishib bo‘lmash musaffoliklar o‘sha yoqlardaday tuyulardi. Lekin, qalbni og‘ir yuk ezar ekan, u musaffoliklar orom bera olarmidi? Koshki biror kor-hol ro‘y bersayu xotiramdan ayrib qolsam, deya orzu qildi Xuan-Shi. Ha, Tiyonshon azim, ulug‘vor, balki bag‘rida vahshiy hayvonlari ham bordir? “O‘sha yoqqa jo‘nasamu ayiq g‘ajib ketsa yaxshi bo‘lardi” deb o‘yladi u.”

Lekin qizi vaqt o‘tib qariganda, otasini beshafqat, jahldor (axir otasi yog‘och kavushni yechsa, oyoqlarini bolta bilan chopib tashlashini aytib qo‘rqtgandi-da) inson deb emas, aksincha, benihoya rahm-shafqatli, mehribon inson deya xotirlaydi. O‘sha yog‘och kavushni esa eng ardoqli buyumi sifatida saqlab, avaylab bolalarga ko‘rsatardi. Hikoya shunday so‘zlar bilan tugaydi:

“Butun umri mehnat bilan o‘tgani uchun, eslashga arzigelik hech nimasi yo‘q edi. Faqat, bolalik musaffoliklaridan darak beradigan, yer-u ko‘kka ishonmaydigan bitta ashyosi bor edi, xolos. U ham bo‘lsa, mehribon ota sevimli qizalog‘iga qachonlardir o‘z qo‘llari bilan yasab bergen kichkina, jinchiq monand kavush.

Eski, yog‘och kavush...”

MUHOKAMA

Asar yakuni o‘quvchiga g‘ayritabiyy tuyulishi mumkin. Chunki shuncha qiyinchilik, jabr-sitam ortidan go‘zal xotima bo‘lishi kutiladi. Ammo yozuvchi kutilmaganda o‘zi ham istamaydigan holatni voqealarga ulab yuborish asnosida ijtimoiy fojiani yuzaga chiqaradi. Bu hikoyada umuminsoniyatga xos azaliy muammolar yangicha yo‘nalishlarda, Sharq va G‘arb estetik tafakkuri an’analarining sintezi o‘laroq o‘z badiiy yechimini topgan.

Mana shu birgina hikoyadan ham anglashiladiki, Isajon Sulton o‘quvchi, insoniyat bilan ramzlar tilida so‘zlashmoqni, dard-u dunyosini unga yuqtirmoqni istaydi. Ushbu hikoya misolida ayta olamizki, aslida yozuvchi an’anaviy usullarda ham bemalol badiiy dunyo yarata biladi. Bugun o‘zbek yozuvchilari ilgari surayotgan olam va odam konsepsiyasining asl ildizlari, ijtimoiy, falsafiy va tarixiy asoslarini belgilash zamonaviy adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir. O‘zbek hikoyachiligi mavzuning badiiy talqini, odamning orzu-umidlari, shaxsning kechinmalari, inson psixologiyasini tahlil etish yo‘lidan bormoqda. Mohiyatga evrilgan badiiy talqinlarda o‘zlikni anglashga intilish kuchli, bu Isajon Sulton hikoyalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Keltirilgan ushbu hikoyalardan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi doimo hayotdan, hayotdagi voqea va hodisalardan turtki oladi. Yozuvchi to‘g‘ridan-

to‘g‘ri hayotni tasvirlamaydi, balki muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratadi. O‘ylaymizki, Isajon Sulton hikoyalari har bir kitobxonning ko‘nglidan joy oladi, hayotning asl mazmunini anglashda yordam beradi. Uning roman, qissa va hikoyalari nafaqat o‘zbek o‘quvchilari, balki dunyo kitobxonlari tomonidan munosib e’tirof etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. I.Sulton. Asarlar. Hikoyalari . 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-yogoch-kovush.html>
4. U.Normatov. (1970) Janr imkoniyatlari. Toshkent: Adabiyot va san’at
5. “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. 2022. – 568 b.